

BIR KASB — BIR YAXSHILIK

Kenjayev Bunyod Xaytboy o'g'li

Zaripova Muyassar Hamro qizi

Yangibozor 1-son texnikumi o'qituvchilari

+998932830975

[http://E-mail:zaripovamuyassar@gmail.com](mailto:zaripovamuyassar@gmail.com)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Yangibozor tuman 1-son texnikumi o'quvchilarining kasb-hunar orqali amalga oshirgan ezgu ishlari yoritilgan. Jumladan, 2.25-guruh o'quvchi qizlarining o'zlari tikkan kiyimlarni kam ta'minlangan oilaga sovg'a qilgani hamda 2.24-guruh yigitlarining mahalladagi oilalardan biriga texnik yordam ko'rsatib, traktor va elektr tarmoqlarini ta'mirlab bergani haqida so'z yuritiladi. Maqolada yoshlarni kasb-hunar bilan bir qatorda insonparvarlik, saxovat va mehr-oqibat ruhida tarbiyalashning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kasb-hunar, yaxshilik, texnikum, yoshlar tarbiyasi, saxovat, mehr-oqibat, amaliy yordam, tikuvchilik, texnik xizmat, elektr tarmoqlari, traktor ta'miri, mahalla, o'quvchilar, ustoz-shogird, insonparvarlik.

Bugungi kunda yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish bilan bir qatorda, ularni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki kasb egasi bo'lish insonni hayotda mustaqil qiladi, ezgulik qilish esa uni jamiyatga foydali inson darajasiga olib chiqadi. Ayniqsa, texnikumlarda tahsil olayotgan yoshlarning hunar bilan birga mehr-oqibat, saxovat va insonparvarlik tuyg'ularini qalbiga singdirish bugungi davr talabi sanaladi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2026-yilni "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yili deb e'lon qilgani hammamizga ma'lum va shu munosabat bilan ta'lim dargohlarida "Bir kasb-bir yaxshilik" loyihasi ishga tushirilgan. Bu loyiha o'quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim omil vazifasini o'tamoqda. Shu loyiha doirasida Yangibozor tuman 1-son texnikumida amalga oshirilayotgan ibratli ishlar tahsinga sazovordir. Texnikum direktori Nargiza Miskinova

boshchiligida o‘quvchilarning nafaqat bilim va kasbiy ko‘nikmalarni egallashi, balki ma’naviy jihatdan yetuk inson bo‘lib voyaga yetishiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Texnikumda muntazam ravishda turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, xayriya aksiyalari va yoshlarni yaxshilikka undovchi uchrashuvlar tashkil etib kelinadi. Ana shunday ezgu tadbirlardan biri yaqinda amalga oshirildi.

Texnikumning 2.25-guruh o‘quvchi qizlari guruh ishlab chiqarish ta’limi ustasi Qo‘chqarova Sayyora bilan birgalikda Bog‘olon mahallasida istiqomat qiluvchi kam ta’minlangan oilalardan birining xonadoniga tashrif buyurishdi. Ushbu tashrif oddiy hol so‘rash bilan cheklanib qolmadi. O‘quvchi qizlar o‘z qo‘llari bilan tikkan kiyimlarini ushbu oilaga sovg‘a qilishdi. Bu esa yoshlarning hunarni puxta egallab borayotgani bilan birga, o‘z mehnatini insonlarga yaxshilik ulashish yo‘lida ishlatayotganini ko‘rsatadi.

Kiyim tikish — bu oddiy mashg‘ulot emas. U sabr, did va mehnat talab qiladigan kasbdir. Eng muhimi esa, tikilgan kiyim insonlarga quvonch ulashishi mumkin. O‘quvchi qizlar o‘z mehnati bilan bir oilaning qalbiga iliqlik olib kirishdi. Kam ta’minlangan oilaning a’zolari bu e’tibor va mehrdan juda mamnun bo‘lishdi. Ayniqsa, yoshlarning samimiyligi va mehribonligi ularga katta ruhiy dalda berdi.

Shuningdek, texnikumning 2.24-guruh yigitlari ishlab chiqarish ta’limi ustasi Safarniyozov Diyorbek boshchiligida o‘zlari tahsil olayotgan yo‘nalish bo‘yicha mahalladagi oilalardan biriga amaliy yordam ko‘rsatishdi. Ular xonadondagi ta’mirtalab holga kelgan traktorni ta’mirlashda faol ishtirok etdilar. Bundan tashqari, uyda mavjud elektr tarmoqlaridagi ayrim nosozliklarni ham bartaraf etib, elektr jihozlarining xavfsiz ishlashini tiklashdi. Bu ishlar o‘quvchilarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalari ham shakllanib borayotganini namoyon etdi.

Yigitlarning ushbu sa’y-harakatlari xonadon egalari uchun katta yordam bo‘ldi. Chunki ayrim texnik nosozliklar oilaning kundalik yumushlariga qiyinchilik tug‘dirayotgan edi. O‘quvchilar esa o‘z bilim va mehnatlari orqali muammoni bartaraf

etishga muvaffaq bo'lishdi. Bu orqali ular "Kasb — inson uchun xizmat qilish vositasi" ekanligini amalda isbotladilar va bunday hayrli ishlarni davom ettirmoqdalar.

Bunday tadbirlar yoshlarni mehr-shafqatli, saxovatpesha va insoniylik fazilatlariga boy qilib tarbiyalaydi. O'quvchilar ustozlari bilan birgalikda yaxshilik qilish orqali hayotning eng muhim saboqlarini o'rganadilar. Guruh masteri Qo'chqarova Sayyora o'quvchilarga nafaqat kasb sirlarini, balki insoniylikning asl mohiyatini ham o'rgatib kelmoqda. Ustoz va shogirdning birgalikdagi bunday ezgu ishlari boshqa yoshlarga ham o'rnak bo'la oladi.

"Bir kasb — bir yaxshilik" degan hikmat juda chuqur ma'noga ega. Inson egallagan kasbi orqali odamlarga foyda keltira olsa, uning qadri yanada oshadi. Bugungi yoshlar ertangi kunning bunyodkorlari hisoblanadi. Ularning qalbida ezgulik va mehr bo'lsa, jamiyat ham albatta rivojlanadi. Yangibozor 1-son texnikumi o'quvchilari amalga oshirgan ushbu xayrli ish barchaga insoniylik va saxovatning yorqin namunasi bo'lib xizmat qiladi. Chunki yaxshilik qilish uchun katta boylik emas, balki pok qalb va ezgu niyat kifoya qiladi. Texnikumda olib borilayotgan bunday hayrli ishlar nafaqat o'quvchilarning bilim ko'nikmalarini sinovdan o'tkazadi, balki hunar inson ko'rki ekanini ham isbotlab beradi. Zero, hunarli inson elda aziz. Yangibozor tuman 1-son texnikumining bundan keyingi faoliyatida ham bunday hayrli ishlar ko'p bo'lishini tilab qolamiz!!!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va yoshlarga oid davlat dasturlari.
2. "Ma'naviyat yulduzlari" — Toshkent, "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti", 2018.
3. Pedagogika va tarbiya bo'yicha metodik qo'llanmalar.
4. Kasb-hunar ta'limiga oid o'quv adabiyotlari va manbalar.
5. Yangibozor 1-son texnikumi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari materiallari.



6.Mahalla va yoshlar tarbiyasiga oid publitsistik maqolalar.